

**“XIRADNOMAYI ISKANDARIY” VA “SADDI ISKANDARIY”  
DOSTONLARIDA VORISIYLIK VA IJODIY INDIVIDUALLIK  
MASALALARI**

**Umida Bolibek qizi OTAYAROVA**

o‘qituvchi

O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti

Samarqand, O‘zbekiston

umida.bolibekovna@gmail.com

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomayi Iskandariy”, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonlarining an’anaviyligi va o‘ziga xosligi o‘rganilgan. Xamsanavislarning Iskandar obraziga bo‘lgan munosabati ijodiy nuqtayi nazarlari va metodlari asosida talqin qilinganligi ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

**Tayanch so‘zlar:** qissaxonlik, Iskandar obrazi, qiyosiy tahlil, ustoz-shogirdlik munosabati, ma’naviy-ruhiy yaqinlik, adabiy ta’sir masalalari, didaktika, ijodiy yondashuv.

**ВОПРОСЫ НАСЛЕДОВАНИЯ И ТВОРЧЕСКОЙ  
ИНДИВИДУАЛЬНОСТИ В ЭПОСЕ «ХИРАДНОМАИ ИСКАНДАРИ» И  
«САДДИ ИСКАНДАРИ»**

**Умида Болибековна ОТАЯРОВА**

Преподаватель

Узбекско-Финляндский педагогический институт

Самарканд, Узбекистан

**Аннотация**

В данной статье анализируется традиционность и своеобразие эпосов «Хирадномаи Искандари» Абдурахмана Джамии и «Садди Искандари» Алишера Навои. Отношение поэтов к образу Александра раскрывается с точки зрения их творческих методов.

**Ключевые слова:** повествование, образ Александра, сравнительный анализ, взаимоотношения учителя и ученика, духовно-психологическая близость, вопросы литературного влияния, дидактика, творческий подход.

Fors-tojik adabiyotida mavjud xamsachilik an’anasi XV asrda Alisher Navoiy tomonidan turkiy tilda davom ettirildi. Bu Sharq adabiyotida katta yangilik bo‘lib, Navoiyning Nizomiy boshlab bergan an’anaga maxsus javobi – “urgan panja”si edi. Doston yaratilgandan hozirgi vaqtda qadar adabiyotshunoslar tomonidan tahlil va talqin etib kelinmoqda. “Xamsa” tarkibidagi har bir doston yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar vujudga keldi. Jumladan, “Saddi Iskandariy”

dostoni Y.E.Bertels, A.Qayumov, X.To‘ran, M.Hamidova, Y.Azimov, N.Komilov, I.Ismoilov kabi olimlar tomonidan maxsus tadqiq qilingan.

Jahon adabiyotida Navoiyning nafaqat “Saddi Iskandariy”, balki butun ijodini atroflicha, chuqur tahlil etish ishlarini rus olimi Y.E.Bertels boshlab bergan. Olim Iskandar obrazining paydo bo‘lish tarixiga e‘tibor qaratib, bu yo‘nalishda yaratilgan asarlarni ko‘proq siyosiy, donishmandlik majmuyi, davr mafkurasi jihatidan tahlil qilib, o‘z davri ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi manbalar sifatida baholaydi. A.Qayumov dostonning g‘oyasi, obrazlar tizimi, badiiy salmog‘iga oid kuzatishlarini bayon qilgan. X.Turan va M.Hamidova “Saddi Iskandariy” matnini tadqiq etib, dostonning tanqidiy matnlarini tuzdilar. Y.Azimov tojik tilidagi nomzodlik dissertatsiyasida “Xiradnomai Iskandariy” dostonini shu turkumdagi boshqa dostonlar bilan qiyoslab, “Saddi Iskandariy” dostoniga ham murojaat qiladi. N.Komilov “Saddi Iskandariy”ning ilova bo‘limlari – nazariy masala, hikoyat va hikmatlarini tasavvufiy yo‘nalishda tadqiq etgan. I.Ismoilov Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy iskandarnomalarini qiyoslashga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida Iskandar obraziga har ikki ijodkorning munosbati, dostonlarning syujet va kompozitsiyasi, an‘ana va novatorlik xususida fikr yuritsa, keyingi tadqiqotida Iskandar obrazining genetik asosi, badiiy adabiyotga kirib kelishi, syujet va obrazlar tizimi, hikoyatlari badiiyatini tadqiq etadi.

Iskandar mavzusini adabiyotga ilk bor Firdavsiy “Shohnoma” asarida olib kirilgan bo‘lsa, Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma” dostonidan so‘ng tarixiylikdan ko‘ra ko‘proq badiiylik kasb etdi. Ijodkorlar Iskandar obrazidan o‘z maqsadlari yo‘lida shaxsiy qarash va ijodiy metodlarini aks ettirishda foydalana boshladilar. Shu tariqa mavzu tarkibidagi an‘anaviy voqeliklar subyektiv yondashuv mahsuli bo‘lgan badiiy to‘qimalar bilan almashina bordi [7;150] XV asrga kelib bu mavzu tarixiy voqelikdan ancha uzoqlashib ulguran edi. Shu bois Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy Iskandar haqidagi dostonlarida faqat umumiy syujet chiziqlarini saqlab, Iskandar obrazidan qolip sifatidagina foydalandilar. Navoiy dostonni yozishga kirishgan davrda ustozining bu mavzuda asar yozayotganidan xabardor edi. Buni “Saddi Iskandariy”da quyidagicha yozadi:

*Bu damkim qilib xomasin durfishon,  
Skandar hadisidin aytur nishon.  
Shak ermaski, fath aylabon shukr-u tar,  
Skandar kibi olg'usi bahr-u bar [9;36]*

Bu yerda Navoiy Jomiy qalamidan durlar sochib, Iskandar so'zi haqida nishona aytayotgan ekan, u haqidagi asar ham uning o'zi kabi olamga mashhur bo'lishini bashorat qiladi.

Alisher Navoiy va Jomiy asarlarini qiyosiy jihatdan o'rganish har ikki ijodkor o'rtasidagi ustoz-shogirdlik, pir-u muridlik, an'ana va novatorlik masalalarini oydinlashtirish imkonini beradi. Rossiyada Navoiy ijodining yangi yo'nalishda o'rganilishini boshlab bergan sharqshunos olim Yevgeniy Bertels Jomiy va Navoiy asarlarining adabiy va mavzu jihatdan uyg'unligini isbotlab, Jomiyning dostonlarini Navoiyning "Xamsa"siga bog'liq ravishda tushunilishi kerak [2;159-219], degan xulosani beradi. Har ikki asarni qiyosiy jihatdan o'rganish jaryonida ijodkorlar o'rtasidagi ma'naviy-ruhiy yaqinlik hamda o'sha davrdagi adabiy ta'sir masalalari aniqroq namoyon bo'ldi. Natijada, mavzu jihatidan uyg'un asarlarda Navoiyning Jomiyga ta'siri emas, balki Jomiyning Navoiyga ta'siri ustun bo'lganligi ayon bo'ldi. Shu bois Bertelsning so'zlarini "Jomiyning tushunishda Navoiyga murojaat qilmoq kerak" mazmunida tushunish lozim. Lekin Jomiy va Navoiy asarlarining g'oyaviy mutanosibligini oshirib yuborib, noto'g'ri talqin qilish holatlari mavjud bo'lib, ayrim adabiyotshunoslar "Saddi Iskandariy"ni "Xiradnomayi Iskandariy"ning batafsil bayoni demoqchi bo'ladilar. Shu bois "Alisher Navoiy Jomiyning "Xiradnomayi Iskandarnoma"siga qayta tartib berishi bilan voqealar bayoniga, hikoyatlarga aniqlik kiritgan, bu esa asarni falsafiy-axloqiy jihatdan boyitib, Iskandar timsolining turkiy adabiyotdagi o'ziga xos shakl-shamoyilini vujudga keltirgan" [14;610] degan yanglish fikrlar ham borki, bu Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asari Abdurahmon Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy" dostonining erkin tarjimasini degan yanglish xulosani keltirib chiqaradi. Darhaqiqat, Alisher Navoiyning o'zi ham asarni Jomiy dostoni asosida yaratganini "Xazoyin ul-maoniy" asarining debochasi [8;26] va

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarida quyidagicha qayd etgan: “Yana chun “Saddi Iskandariy” asosin xotirim muhandisi solibdur, Hazrati Mahdum “Xiradnoma”sidin ko‘si isloh va imdod cholibtur” [16;13]. Bu bilan hazrat Navoiy o‘zining “Saddi Iskandariy” dostonining yozilishi uchun “Xiradnomayi Iskandariy” dostoni ilhom manbayi sifatida xizmat qilganini ta’kidlaydi. Alisher Navoiyning ushbu e’tirofidan kelib chiqib, bizningcha, asarni badiiy tarjima emas, balki ijodiy izdoshlik, nazira deb tushunish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki har ikki dostonni qiyosiy o‘rganish natijasida bu fikr yana-da oydinlashadi. Shuningdek, Yevropada Alisher Navoiy asarlariga mana shunday yanglish baho berilganini o‘tgan asrda yashagan sharqshunos olim Y.E.Bertels inkor qilar ekan “Navoiy fors shoirlari tarjimoni bo‘lsa, unda Amir Xisrav, Kotibiy, Xotifiy va boshqa ko‘plab shoirlar ijodini qanday baholash kerak? Qizig‘i shundaki, ular Nizomiyni fors tilidan fors tiliga tarjima qilishgan ekan-da!” [4;137], degan fikrni bildiradi. Demak, Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni “Xiradnomayi Iskandariy”ga bevosita va qolgan dostonlarga bilvosita nazira bo‘lib, shoh va gadolik yo‘lini tutgan shahzoda syujeti hamda Iskandarning vafoti oldidan onasiga yozgan maktubi har ikkala dostonda mazmunan o‘ta yaqin bo‘lgani bois ba’zi adabiyotshunoslar tomonidan Navoiy “Xiradnomayi Iskandariy”ni mukammallashtirib, mavzu va g‘oyani aniqlashtirgan, degan yanglish xulosani keltirib chiqargan. Bunga ma’lum sabablar ham mavjud, ya’ni Iskandar va gadolik yo‘lini tutgan podshoh hikoyati mazmunan va shaklan (“Xiradnomayi Iskandariy” 49 bayt, “Saddi Iskandariy” 48 bayt) deyarli bir xil bo‘lib, faqat yakundagina farq qiladi. Jomiyda gadoning shartlaridan so‘ng, Iskandar biror so‘z aytishga ojiz qoladi va so‘zlariga pushaymon bo‘ladi:

*Сикандар чу он нуктадор гӯш кард,*

*Зи чизи ки мизуфт хомӯш кард [5;98].*

(mazmuni: Iskandar bu gaplarni eshitgach, aytganlariga pushaymon bo‘ldi).

Navoiy Iskandari esa Olloh tomonidan o‘ziga shohlikning, unga gadolikning ravo ko‘rilganini aytadi, ammo gadoda himmat shohnikidan balandroq ekanini ham tan oladi:

*Ki bu dahr aro topsang ogohlik,  
Sango faqr berdi, manga shohlik.  
Agarchi meni ayladi arjmand,  
Senga berdi himmatni mendan baland [9;78].*

Bu hikoyat sayyor syujet bo‘lib, XVI asrda yashab ijod etgan Poshshoxoja Abdulvahhobxoja o‘g‘li Xojaning “Gulzor” asarida ham keltirilgan va voqealar xuddi shu tarzda kechadi. Farqli jihati shundaki, Iskandar odamlarni yuborganida, u taklifni rad etadi va kelmaydi. Keyin esa uni majburlab olib kelishadi, devona yuqoridagi shartlarini aytgach, Jomiyning Iskandari kabi jim qoladi.

Maktub masalasi esa nafaqat Jomiy va Navoiyda, balki Nizomiy Ganjaviyda ham mavjud bo‘lib, har uchala dostonida Iskandar onasiga taskin bermoq uchun o‘limidan keyin katta ziyofat uyushtirishi va bu ziyofatda faqat yaqin kishisini yerga qo‘ymagan odamlargina ovqatdan tanovul qilishi mumkinligini vasiyat qiladi. Bu bilan tug‘ilish bormi, o‘lim – bor, inson baloga sabr qilmog‘i lozim degan xulosaga kelinadi.

Abdurahmon Jomiy “Xiradnomayi Iskandariy”ni yozishni maqsad qilganda Nizomiy va Dehlaviyning shu yo‘nalishdagi dostonlarini diqqat bilan kuzatadi hamda bu mavzuda yangi, original asar yozishga kirishadi. Jomiy o‘ylantirgan masala shundan iborat ediki, ikki xamsanavis Iskandar tarixini butun tavsilotlari bilan mukammal tarzda yoritishgan, uning tug‘ilishi, taxtni egallashi, podshohlik faoliyati, adolati, sayohati haqida yozishgan. Endi ularni takrorlamasdan, an’anaviylikni saqlab qolgan holda qanday asar yaratmoq lozim?! Shunda Jomiy Iskandarning o‘ziga emas, balki so‘ziga e’tibor qaratishni maqsad qiladi va dostonni “Xiradnomayi Iskandariy” deb nomlab, uning faoliyatiga, adolatiga e’tibor qaratadi. Ta’kidlash lozimki, xamsanavislarning asar yozishdan maqsadi doston nomidayoq aks etgan: Dehlaviy Iskandarning oynasini, Jomiy aqlnomasini, Navoiy devorini qalamga olgan. Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomayi Iskandariy” dostonida Iskandar syujeti bilan bog‘liq umumiy voqealar mavjud bo‘lsa-da, asar ko‘proq pandnomani yodga soladi. Adib dostonni yozishni boshlar ekan, ko‘p umri qofiya izlab sarob bo‘lganligini yozadi va so‘zda ma’ni bo‘lishi

lozimligini ta'kidlaydi. So'zlarimga ma'no qidirsam, ular xayol osmoniga uchib ketdilar. Ko'p harakat qilib tuta olmadim, deydi kamtarlik bilan. O'zining bu holatini "Kalxat va qurbaqa qissasi"dagi qari kalxatga o'xshatadi. Hikoyatda keltirilishicha, bir qari kalxat o'ziga yemak topish qobiliyatini yo'qotgan, ya'ni qarilik va ochlik uni holdan toydirgan edi. Nogohon uning changaliga bir qurbaqa tushib, og'zi luqma ta'mini tuyadigan bo'ldi. Ammo qurbaqa chunonam faryod urib yalinib-yolvoradi: "Mening butun vujudim suyak va teridan iborat. Meni yeganing bilan hech huzur topmaysan. Meni qo'yib yuborsang, senga baliq keltirayki, uning na suyagi, na terisi bor. U zilol suvda yashaganligi bois pok va mazali", - deydi. Buni eshitgan kalxat baliq orzusida qurbaqaga va'da bermoq uchun og'zini ochadi va qurbaqa sakrab qochadi. Qanchalik intizor bo'lib kutmasin na qurbaqadan, na baliqdan hech qanday darak bo'lmaydi. Jomiy o'zini kalxatga o'xshatar ekan, so'zdan ma'ni izlab, ko'nglidan huzur yo'qolganligini ta'kidlaydi. Shu tarzda har bir syujet yoxud xiradnomadan so'ng hikoyat keltirilib, fikr dalillanadi. Jomiy dostonidagi yana bir yangilik shundaki, soqiynoma va mug'anniynomalar doston syujetiga emas, hikoyatlarga yakun yasaydi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning dostonlari shakl jihatidan bir-biridan farq qilsa-da, g'oyaviy jihatdan mutanosib bo'lib, har ikki ijodkorning ham maqsadi Iskandar dostoni bahonasida shaxs ma'naviy kamolotini boyitish, ruhini tarbiyalash, ilmning, adolatning, saxovatning insoniyat hayotida qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ochib berishdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Азимов Ю. Абдурахмон Жомий «Хирадномайи Искандарий» достонининг қиёсий-типологик таҳлили: Филол. фан. номз... дисс. – Самарқанд, 1996.
2. Бертельс. Навои, опыт творческой биографии. – Москва, 1963.
3. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том 4. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965. – С. 283-368.
4. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2006 yil, 2-son.

5. Жомий. Хирадномаи Искандарий. Критический текст. – Москва: Наука, 1984.
6. Исмоилов И. Алишер Навоий «Садди Искандарий» достонининг қиёсий таҳлили: фил.ф.б. (PhD) фалс.доктори.дисс. – Тошкент, 2019.
7. Исмоилов И. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достони генезеси ва поэтикаси: монография. – Тошкент: Anorbooks, 2022. – 150 б.
8. Навоий, Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик.16 жилд. – Тошкент: Фан, 2000.
9. Навоий, Алишер. Садди Искандарий. – Тошкент: F.Ғулом, 2006.
10. Raximova G. Alisher Navoiy ijodida ta’lim va tarbiya //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 2023.
11. Тоҳиров С. Алишер Навоийнинг «Садди Искандарий» достони архитектуроникаси ҳақида: “Темурийлар даврида яратилган “Хамса”ларнинг компаративистик тадқиқи ва уларнинг шарқ адабиёти тараққиётидаги ўрни” мавзuidaги халқ. илмий-назарий анжуман, 2020 йил 6-7 ноябрь.
12. Қаяюмов А. Садди Искандарий. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1975
13. Ҳамидова М. «Садди Искандарий» достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи: филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 1994.
14. Marc Toutant. Evaluating Jami’s Influence on Navai. The Case Studies of the Khiradnama-yi Iskandari and the Sadd-i Iskandari. – 606-652-bb
15. Mukhiddinov M. Professor of SamSU, d.f.f. Wisdom in the Praises of the Epic “Saddi Iskandariy”. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE “EISSN: 2660-6828 | Volume: 04 Issue: 05-May 2023 <https://cajipc.centralasianstudies.org>
16. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz). Мухокамат ул-луғатайн. 13-бет (nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev)